



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI

Inobatov Abror Boshlarovich

Renessans ta'lim universiteti

“Moliya va kredit” kafedrası mudiri,

i.f.f.d. (PhD), dotsent

E-mail: inobatov83@bk.ru

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0288-8798>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash va oshirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Korrelyatsion-regression tahlil yordamida bank moliyalashtirishi, investitsiyalar va raqamli transformatsiyaning faoliyat samaradorligiga ta'siri baholandi. Shuningdek, muallif tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kompleks baholash imkonini beruvchi Business Performance Index (BPI) ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyektlari, faoliyat samaradorligi, iqtisodiy mexanizmlar, Business Performance Index (BPI), iqtisodiy baholash, bank moliyalashtirishi, investitsiyalar, raqamli transformatsiya, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy-matematik model, raqobatbardoshlik, samaradorlik ko'rsatkichlari.

Abstract. This article examines modern economic mechanisms for assessing and improving the performance of entrepreneurial entities. Based on official data from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan and the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the study analyzes the key economic indicators of entrepreneurial entities. Correlation and regression analysis is employed to evaluate the impact of bank financing, investment, and digital transformation on business performance. Furthermore, the author develops a Business Performance Index (BPI) as an integrated tool for assessing the performance of entrepreneurial entities. Based on the empirical findings, practical recommendations are proposed to enhance business performance, expand the adoption of digital technologies, and improve the efficient use of economic resources.

Keywords: entrepreneurial entities, business performance, economic mechanisms, Business Performance Index (BPI), performance assessment, bank financing, investment, digital transformation, correlation and regression analysis, econometric model, competitiveness, performance indicators.

Аннотация. В статье исследованы современные экономические механизмы оценки и повышения эффективности деятельности субъектов предпринимательства. На основе официальных данных Национального комитета по статистике Республики Узбекистан и Центрального банка Республики Узбекистан проведён анализ основных экономических показателей деятельности субъектов предпринимательства. С использованием корреляционно-регрессионного анализа оценено влияние банковского финансирования, инвестиций и цифровой трансформации на эффективность их деятельности. Кроме того, автором разработан Business Performance Index (BPI), позволяющий комплексно оценивать эффективность деятельности субъектов предпринимательства. По результатам исследования предложены практические рекомендации, направленные на повышение эффективности предпринимательской деятельности, расширение использования цифровых технологий и более рациональное использование экономических ресурсов.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, эффективность деятельности, экономические механизмы, Business Performance Index (BPI), экономическая оценка, банковское финансирование, инвестиции, цифровая трансформация, корреляционно-регрессионный анализ, экономико-математическая модель, конкурентоспособность, показатели эффективности.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va global raqobatning kuchayishi tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashda ham muhim o'rin egallamoqda. Shu bois, ularning faoliyati samaradorligini zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar asosida baholash va takomillashtirish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari dunyodagi korxonalarning 90 foizdan ortig'ini tashkil etadi, yalpi ichki mahsulotning taxminan 50 foizini shakllantiradi hamda aholi bandligining 70 foizga yaqinini ta'minlaydi. Shuning uchun iqtisodiy o'sish sur'atlari, innovatsion faollik va investitsiya jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan tadbirkorlik muhitining rivojlanish darajasiga bog'liq.

O'zbekistonda ham tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish muhitini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar doirasida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kreditlash tizimini soddalashtirish, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va investitsiya faolligini rag'batlantirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amaliy tahlillar tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholashda asosan moliyaviy natijalar yoki yalpi ichki mahsulotdagi ulush kabi alohida ko'rsatkichlardan foydalanilayotganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv raqamli transformatsiya, innovatsion faollik, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi, bank moliyalashtirishi va tashqi iqtisodiy faoliyatning kompleks ta'sirini to'liq baholash imkonini bermaydi. Shu sababli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini iqtisodiy, moliyaviy va raqamli ko'rsatkichlar asosida kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash va oshirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy omillarni iqtisodiy-statistik hamda korrelyatsion-regression tahlil asosida baholash va Business Performance Index (BPI) nomli kompleks baholash modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, korrelyatsion-regression tahlil, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari qo'llanilib, tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar baholandi hamda ularni takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash va oshirish masalalari iqtisodiyot nazariyasi, moliya, menejment va institutsional iqtisodiyot sohalarida keng tadqiq qilingan. Xususan, tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholash masalalari klassik va zamonaviy iqtisodiy maktab vakillari tomonidan har tomonlama o'rganilgan.

Jumladan, Y. Shumpeter tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishning asosiy manbai sifatida baholab, iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi innovatsiyalar ekanligini asoslagan. Uning fikricha, tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish darajasi bilan belgilanadi. P. Druker esa tadbirkorlikni imkoniyatlardan samarali foydalanish jarayoni sifatida talqin qilib, boshqaruv sifati va innovatsion yondashuvlarni samaradorlikning muhim omillari sifatida ko'rsatgan.

Moliyaviy resurslarning tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri R. Levin tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, u moliya tizimining rivojlanganligi iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab bergan. T. Bek va A. Demirgüç-Kunt kichik va o'rta biznesning moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi uning rivojlanishidagi asosiy to'siqlardan biri ekanligini ta'kidlagan. A. Berger va G. Udell esa tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ularning investitsiyaviy faolligi va raqobatbardoshligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyotning tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga ta'siri alohida o'rin egallaydi. OECD (2023) hisobotida raqamli texnologiyalarni joriy etgan kichik va o'rta biznes subyektlarida mehnat unumdorligi va qo'shilgan qiymat an'anaviy faoliyat yurituvchi korxonalarga nisbatan yuqori ekanligi qayd etilgan. Jahon banki (2022) tadqiqotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar va innovatsion texnologiyalar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy inklyuzivligini oshirish, tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.



Mahalliy olimlar tomonidan ham tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, bank kreditlashini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik muhitini rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda asosan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholashda asosan moliyaviy natijalar, rentabellik yoki yalpi ichki mahsulotdagi ulush kabi alohida ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilgan. Raqamli transformatsiya, investitsiya faolligi, bank moliyalashtirishi, eksport salohiyati va inson kapitali kabi omillarni yagona kompleks baholash tizimi asosida tahlil qilish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy farqi (research gap) shundan iboratki, unda tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi taklif qilinib, iqtisodiy, moliyaviy va raqamli ko'rsatkichlarni birlashtiruvchi Business Performance Index (BPI) ishlab chiqildi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida korrelyatsion-regression tahlil usullari orqali baholandi. Bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash va oshirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishda tahlil va sintez, iqtisodiy-statistik, qiyosiy, indeks, korrelyatsion-regression tahlil hamda iqtisodiy-matematik modellashirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, Jahon banki va OECD hisobotlari tashkil etdi. Muallif tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini kompleks baholash uchun Business Performance Index (BPI) taklif etildi hamda uning ishonchligi korrelyatsiya koeffitsiyenti (R), determinatsiya koeffitsiyenti (R^2), F-kriteriy va t-kriteriy asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning 2021–2025-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, mazkur davrda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotni kreditlash hajmi barqaror o'sib, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengaygan. Shu bilan birga, investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'sish dinamikasi kuzatildi.

Biroq kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushida nisbatan pasayish tendensiyasi qayd etildi. Bu holat tadbirkorlik subyektlari samaradorligining pasayishi bilan emas, balki mamlakat iqtisodiyotida yirik sanoat va infratuzilma loyihalari hissasining ortishi, iqtisodiyot tarkibining diversifikatsiyalashuvi bilan izohlanadi. Demak, tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashda faqat YalMdagi ulushga emas, balki investitsiyalar, bank moliyalashtirishi, eksport va raqamli transformatsiya kabi ko'rsatkichlarga ham e'tibor qaratish lozim.

Korrelyatsion-regression tahlil natijalari tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi bilan tanlangan iqtisodiy omillar o'rtasida yuqori darajadagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, determinatsiya koeffitsiyentining yuqori qiymati (R^2) tadbirkorlik subyektlari samaradorligidagi o'zgarishlarning asosiy qismi tanlangan omillar hisobiga izohlanishini tasdiqlaydi. Bu esa qurilgan iqtisodiy-matematik modelning amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri sifatida muallif tomonidan Business Performance Index (BPI) taklif etildi. Ushbu indeks mehnat unumdorligi, rentabellik, investitsiyalar, bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va eksport faolligi kabi ko'rsatkichlarni kompleks baholash imkonini berdi. Hisob-kitoblar natijalari BPI tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini kompleks baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali tahliliy vosita bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi.

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan ham uyg'unlik kasb etadi. Jumladan, OECD va Jahon banki tadqiqotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy resurslarga keng kirish imkoniyati hamda investitsiya faolligini oshirish tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etilgan. Bu esa mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tahlil natijalari tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy, moliyaviy va raqamli omillarni kompleks baholash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, taklif



etilgan Business Performance Index (BPI) davlat organlari, tijorat banklari va tadbirkorlik subyektlari tomonidan monitoring va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

1-jadval
2021–2025-yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.¹

Yil	Bank kreditlari hajmi (trln so'm)	Kichik biznesning YalMdagi ulushi (%)	Asosiy kapitalga investitsiyalar (trln so'm)	Eksport hajmi (mlrd AQSH dollari)
2021	236,8	56,3	239,6	16,6
2022	278,4	56,9	269,9	19,3
2023	322,7	57,3	352,8	24,4
2024	361,5	57,8	404,4	26,9
2025	390,0	58,1	452,6	29,8

1-jadval ma'lumotlari 2021–2025-yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatilganligini ko'rsatadi. Xususan, tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 236,8 trln so'mdan 390,0 trln so'mgacha, ya'ni 64,7 foizga oshgan. Bu tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengayganligini hamda bank tizimi tomonidan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash ko'lamini ortib borayotganligini anglatadi.

Shu davrda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 239,6 trln so'mdan 452,6 trln so'mgacha ko'payib, qariyb 1,9 barobarga o'sdi. Bu iqtisodiyotda investitsiya muhitini yaxshilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar samaradorligini ko'rsatadi.

Eksport hajmi ham tahlil qilingan davrda 16,6 mlrd AQSH dollaridan 29,8 mlrd AQSH dollarigacha, ya'ni 79,5 foizga oshgan. Bu tadbirkorlik subyektlarining tashqi bozorlardagi faolligi oshib borayotganini hamda eksportni qo'llab-quvvatlash choralari bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganini anglatadi.

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 56,3 foizdan 58,1 foizgacha o'sib, iqtisodiyotda xususiy sektorning barqaror mavqega ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tendensiyalar tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini takomillashtirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida ijobiy natijalar kuzatilayotganini ko'rsatadi.

$$BPI = \sum_{i=1}^n W_i \times X_i$$

bu yerda

BPI - Business Performance Index, ya'ni tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligining integral indeksi;

W_i - i-ko'rsatkichning salmoq koeffitsiyenti (vazn koeffitsiyenti);

X_i - i-ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati;

n - baholashda ishtirok etuvchi ko'rsatkichlar soni (mazkur tadqiqotda **n = 7**).

Indeksni hisoblashda barcha ko'rsatkichlar Min–Max normallashtirish usuli asosida 0–1 oralig'iga keltirildi:

$$X_i = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

bu yerda:

X – ko'rsatkichning haqiqiy qiymati;

X_{min} – ko'rsatkichning eng kichik qiymati;

X_{max} – ko'rsatkichning eng katta qiymati.

Salmoq koeffitsiyentlari (W_i) muallif tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sir darajasi, iqtisodiy ahamiyati va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlarni umumlashtirish asosida belgilandi.

¹ **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



2-jadval
Tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi va bank kreditlari o'rtasidagi korrelyatsion-regression tahlil natijalari.²

No	Ko'rsatkich	Belgisi	Qiymati	Baholash	Iqtisodiy talqin
1	Korrelyatsiya koeffitsiyenti	R	0,964	Juda yuqori	Bank kreditlari va natijaviy ko'rsatkich o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud
2	Determinatsiya koeffitsiyenti	R ²	0,929	Yuqori	Natijaviy ko'rsatkichdagi o'zgarishlarning 92,9 % modeli orqali izohlanadi
3	Adjusted R ²	0,917	Yuqori	Model barqarorligini tasdiqlaydi	
4	F-statistic	39,20	Qabul qilinadi	Model umumiy jihatdan statistik ahamiyatga ega	
5	Prob(F)	0,000	<0,05	Model ishonchli	
6	t-statistic	6,46	>2	Regressiya koeffitsiyenti statistik ahamiyatli	
7	Durbin-Watson	2,01	Me'yoriy	Qoldiqlarda avtokorrelyatsiya kuzatilmadi	
8	Regression tenglama	Y = 31,427 + 0,083X	-	Prognozlash uchun mos	

Bu yerda:

Y — tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini ifodalovchi natijaviy ko'rsatkich;

X — tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi.

2-jadvalda tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi bilan tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash bo'yicha korrelyatsion-regression tahlil natijalari keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, korrelyatsiya koeffitsiyenti $R = 0,964$ ni tashkil etgan bo'lib, bu bank kreditlari hajmi bilan natijaviy ko'rsatkich o'rtasida juda kuchli musbat bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,929$ bo'lib, natijaviy ko'rsatkichdagi o'zgarishlarning 92,9 foizi modelga kiritilgan omil, ya'ni bank kreditlari hajmi hisobiga izohlanishini anglatadi. Adjusted $R^2 = 0,917$ qiymati esa qurilgan regressiya modeli barqaror va tahlil uchun yetarli darajada ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Modelning umumiy ahamiyatligi $F = 39,20$ va $Prob(F) = 0,000 (<0,05)$ ko'rsatkichlari bilan tasdiqlanadi. Bu qurilgan regressiya modeli statistik jihatdan ishonchli ekanligini va iqtisodiy tahlil hamda prognozlash ishlarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, $t = 6,46 (>2)$ regressiya koeffitsiyentining statistik ahamiyatli ekanligini, Durbin-Watson = 2,01 esa qator qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emasligini anglatadi.

3-jadval
Business Performance Index (BPI)ni hisoblash va baholash natijalari³

No	Ko'rsatkich	Belgisi	Salmoq koeffitsiyenti (Wi)	Normallashtirilgan qiymat (Xi)	Wi × Xi	Ta'sir darajasi
1	Mehnat unumdorligi	X ₁	0,20	0,86	0,172	Yuqori
2	Rentabellik darajasi	X ₂	0,15	0,82	0,123	Yuqori
3	Aktivlar rentabelligi (ROA)	X ₃	0,15	0,79	0,119	O'rtacha
4	Investitsiyalar o'sishi	X ₄	0,15	0,88	0,132	Yuqori
5	Bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi	X ₅	0,15	0,84	0,126	Yuqori
6	Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi	X ₆	0,10	0,91	0,091	Juda yuqori
7	Eksport faolligi	X ₇	0,10	0,79	0,079	O'rtacha
Jami	Business Performance Index (BPI)	-	1,00	-	0,842	Yuqori samaradorlik

² Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.




3-jadvalda muallif tomonidan taklif etilgan Business Performance Index (BPI) asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini kompleks baholash natijalari keltirilgan. Indeksni hisoblashda mehnat unumdorligi, rentabellik, aktivlar rentabelligi, investitsiyalar o'sishi, bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda eksport faolligi kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar inobatga olindi.

Hisob-kitoblar natijasida $BPI = 0,842$ qiymati olindi. Taklif etilgan baholash mezoniga muvofiq, ushbu ko'rsatkich "yuqori samaradorlik" darajasiga to'g'ri keladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy resurslardan foydalanish, investitsiya faolligi va raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi barqaror rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Indeks tarkibi tahlil qilinganda, eng yuqori hissa raqamli texnologiyalarni joriy etish (0,091), mehnat unumdorligi (0,172) va investitsiyalar o'sishi (0,132) hissasiga to'g'ri kelgani aniqlandi. Bu holat raqamli transformatsiya va investitsiyalarning tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, eksport faolligi va aktivlar rentabelligi bo'yicha nisbatan pastroq ko'rsatkichlar mavjudligi mazkur yo'nalishlarda qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarini soddalashtirish va innovatsion mahsulotlarni qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik subyektlari samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, taklif etilgan Business Performance Index tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kompleks baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda davlat organlari, tijorat banklari va investorlar uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy tahliliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.



Izoh: Ko'rsatkichlar 0 dan 1 gacha oraliqda normallashtirilgan. 1 ga yaqinlashgan sari ko'rsatkichning holati yaxshilanadi.

1-rasm. Business Performance Index (BPI)
tarkibiy ko'rsatkichlarining radar diagrammasi.⁴

⁴ **Manba:** O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



4-jadval

Tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlari va kutilgan natijalar⁵

№	Zamonaviy iqtisodiy mexanizm	Amaldagi muammo	Taklif etilayotgan yechim	Kutilgan iqtisodiy natija
1	Bank moliyalashtirishini takomillashtirish	Kredit ajratish muddatining uzoqligi	Raqamli skoring va onlayn kreditlash tizimini joriy etish	Moliyalashtirish tezligi va qamrovi oshadi
2	Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish	Moliyalashtirish manbalari cheklangan	Lizing, venchur kapitali va kapital bozori instrumentlarini kengaytirish	Investitsiya faolligi va kapital jalb qilish imkoniyatlari ortadi
3	Raqamli transformatsiya	Biznes jarayonlarining avtomatlashtirilmaganligi	ERP, CRM va elektron tijorat platformalarini joriy etish	Mehnat unumdorligi va boshqaruv samaradorligi oshadi
4	Eksport salohiyatini rivojlantirish	Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari cheklangan	Eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari va raqamli eksport platformalarini rivojlantirish	Eksport hajmi va xalqaro raqobatbardoshlik oshadi
5	Samaradorlikni kompleks baholash	Yagona baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurati	Business Performance Index (BPI) ni amaliyotga joriy etish	Boshqaruv qarorlari sifati va monitoring samaradorligi yaxshilanadi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash va oshirishning zamonaviy iqtisodiy mexanizmlari kompleks tahlil qilinib, quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularning faoliyati samaradorligini baholashda faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanmasdan, bank moliyalashtirishi, investitsiya faolligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va eksport salohiyatini qamrab olgan kompleks baholash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, 2021–2025-yillar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari tahlili tadbirkorlik subyektlarini bank tomonidan moliyalashtirish hajmi 236,8 trln so'mdan 390,0 trln so'mgacha, ya'ni 64,7 foizga oshganligini ko'rsatdi. Shuningdek, investitsiyalar va eksport ko'rsatkichlarida ham ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatildi. Bu holat tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari kengayib borayotganligini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, korrelyatsion-regression tahlil natijalari tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi bilan bank moliyalashtirishi o'rtasida kuchli statistik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Qurilgan iqtisodiy-matematik modelning asosiy ko'rsatkichlari ($R = 0,964$; $R^2 = 0,929$; $F = 39,20$; $p < 0,05$) modelning yetarli darajada ishonchli ekanligini hamda olingan natijalarning statistik jihatdan asoslanganligini tasdiqladi.

To'rtinchidan, tadqiqot doirasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan Business Performance Index (BPI) tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kompleks baholash imkonini beruvchi integral ko'rsatkich sifatida taklif etildi. Hisoblash natijalariga ko'ra, BPI = 0,842 ni tashkil etdi, bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligining yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Indeks mehnat unumdorligi, rentabellik, investitsiyalar o'sishi, bank kreditlaridan foydalanish samaradorligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi va eksport faolligi kabi asosiy ko'rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirdi.

Beshinchidan, tadqiqotning ilmiy yangiligi tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash uchun iqtisodiy, moliyaviy va raqamli ko'rsatkichlarni o'zaro integratsiya qiluvchi Business Performance Index (BPI) ishlab chiqilganligi hamda uning amaliy qo'llanilishi korrelyatsion-regression tahlil natijalari asosida ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi. Taklif etilgan yondashuv tadbirkorlik subyektlari faoliyati

5 **Manba:** Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



samaradorligini kompleks baholash, monitoring qilish va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish imkonini beradi.

Umuman olganda, maqolada taklif etilgan zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar va Business Performance Index (BPI) davlat organlari, tijorat banklari hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlari faoliyatida samaradorlikni baholashning amaliy vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin. Ularni amaliyotga joriy etish tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishga, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholashda Business Performance Index (BPI)ni davlat organlari, tijorat banklari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlari amaliyotiga joriy etish;

tijorat banklarida raqamli kreditlash va sun'iy intellekt asosidagi scoring tizimlarini kengaytirish orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini yaxshilash;

investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlari bilan bir qatorda lizing, venchur kapitali va kapital bozori instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish;

tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalar, ERP va CRM tizimlari hamda elektron tijorat platformalarini joriy etishni davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash uchun Milliy statistika qo'mitasi va Markaziy bankning ochiq ma'lumotlari asosida doimiy monitoring tizimini shakllantirish;

eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarini takomillashtirish orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, maqolada taklif etilgan zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar hamda Business Performance Index (BPI) tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini kompleks baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtiradi hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuvni O'zbekiston sharoitida davlat organlari, tijorat banklari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlari faoliyatida samaradorlikni monitoring qilish va baholashning amaliy instrumenti sifatida qo'llash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 1-iyundagi PQ-210-son "Tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali yoshlar bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-8239691>
3. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-son "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2006789>
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi O'RQ-582-son "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha statistik to'plam. Toshkent, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati bo'yicha statistik byulleten. Toshkent, 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Open Data statistik bazasi. Toshkent, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish yakunlari bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent, 2025.
9. OECD. The Digital Transformation of SMEs. Paris: OECD Publishing, 2021.
10. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
11. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. Paris: OECD Publishing, 2024.
12. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. Washington, DC: World Bank, 2022.
13. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2023. Washington, DC: World Bank, 2023.
14. World Bank. Global Economic Prospects. Washington, DC: World Bank, 2025.
15. Cambridge Centre for Alternative Finance, Asian Development Bank Institute. MSME Access to Digital Finance Study: In Selected EMDE Countries in Asia. Cambridge: University of Cambridge Judge Business School, 2025.



16. European Investment Bank. EIB Investment Survey 2024: European Union Overview. Luxembourg: European Investment Bank, 2024.
17. United Nations Conference on Trade and Development. Digital Economy Report 2024: Shaping an Environmentally Sustainable and Inclusive Digital Future. Geneva: United Nations, 2024.
18. International Monetary Fund. Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. Washington, DC: IMF, 2024.
19. Asian Development Bank. Asian Development Outlook 2025. Manila: Asian Development Bank, 2025.
20. Schumpeter, J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
21. Drucker, P.F. Innovation and Entrepreneurship. New York: Harper & Row, 1985.
22. Stiglitz, J.E., Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // American Economic Review. 1981. Vol. 71(3). P. 393–410.
23. Berger, A.N., Udell, G.F. A More Complete Conceptual Framework for SME Finance // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30(11). P. 2945–2966.
24. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // Journal of Banking & Finance. 2006. Vol. 30(11). P. 2931–2943.
25. Levine, R. Finance and Growth: Theory and Evidence // Handbook of Economic Growth. Amsterdam: Elsevier, 2005. P. 865–934.
26. Porter, M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
27. Kaplan, R.S., Norton, D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press, 1996.
28. Damodaran, A. Applied Corporate Finance. 4th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2014.
29. Brigham, E.F., Ehrhardt, M.C. Financial Management: Theory & Practice. 16th ed. Boston: Cengage Learning, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>